

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Salimova Muqaddas
Xayoyevna, Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumani, 13-maktab
o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Hozirda mamlakatimizda ona tilini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, maktablarda, ta'lim muassasalarida ona tilini o'qitishda turli innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan.*


***Kalit so'zlar:** “Sergul daraxt” metodi, “Munosiblik testlari”, pedagogik texnologiyalari*

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev “O'zbek tili nufuzini oshirish to'g'risida”gi ma'ruzalarida, jumladan shunday degan edilar: “Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur”. Yosh avlod qalbida ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur” - degan edilar.

Darhaqiqat, yosh avlod farzandlarimiz milliy tilimizni, an'ana va qadriyatlarimiz yaxshi bilishlari hamda ularga hurmat va ehtirom bilan qarashlari uchun avvalo, ona tilimizni puxta bilishlari zarur.

Ona tili – har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalaydigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil

fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.



Ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar

quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.


Masalan, 3-sinf ona tili darsligida berilgan "Gapning maqsadiga ko'ra turlari" mavzusini o'tishda "Sergul daraxt metodi"dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda mavzu tushuntiriladi, Gapning maqsadiga ko'ra turlari haqidagi ma'lumotlar aytiladi. Mavzuga doir mashq va topshiriqlar shartlari asosida bajariladi va ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida "Sergul daraxt metodi"dan foydalaniladi. Ya'ni mavzuga doir savollar beriladi. 3 ta qator uchun 3 ta daraxt sinf taxtasiga ilinadi, ma'lumotlar yozilgan stikerlar esa, (iloji bo'lsa, gul shaklidagi) daraxtga yopishtirib boriladi. Eng ko'p gul to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

Xuddi shu mavzuga doir ma'lumotlarni yanada mustahkamlash maqsadida "Munosiblik testlari"dan ham foydalanish ham ahamiyatlidir:

Gaplarni to'ldiring!

Mevazordan bolalar	mazali emas edi
Sho‘rva unchalik	olma terdik
Qiziq, onasi uni	baralla aytdilar
Odamlar bu so‘zni	buncha maqtadi

Shuningdek, “Ma’lumotlar banki” yoki “Ma’lumotlar zahirasi” metodlari asosida ham grammatikaga oid bilimlar zahirasini byitish mumkin.



Bunday interfaol usullar til o‘rganishda o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda yaxshi qo‘l keladi. Til oilalari turlicha bo‘lgan tillarni o‘rganish o‘quvchilarda biroz qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy ammo fan o‘qituvchisining vazifasi ana shu murakkablikni osonlashtirib, o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtirishdan iborat ekanligini aslo unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”. 1997-y 29-avgust.
2. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
3. A.G‘ulomov, M.Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.
4. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili 3-sinf darsligi. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2019